


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 40677 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 24176 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

2022- yil 1- oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 19160 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 79,3 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (49,5 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 8,1 %ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,4 %ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 %ni tashkil etdi.

2022- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 466,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,0 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (32,1 %), transport xizmatlariga (21,4 %), avtotransport xizmatlariga (20,6 %), moliyaviy xizmatlariga (17,3 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %



2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 2 151,8 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2022- yil yanvar-avgust oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1380,9 mlrd. so'mga ko'paydi

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (3 674,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (2 453,1 mlrd. so'mga), avtotransport xizmatlar (2 353,7 mlrd. so'mga), hamda Moliyaviy xizmatlar (1 981,2 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2021- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 412,1 mlrd. so'mga, savdo xizmatlari – 675,2 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 354,9 mlrd. so'mga va aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar – 109,4 mlrd. so'mga oshgan.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Xizmatlar – jami	11 466,9	114,0
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	555,2	123,5
moliyaviy xizmatlar	1 981,3	124,2
transport xizmatlari	2 453,2	110,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 353,7	109,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	335,6	104,9
savdo xizmatlari	3 674,7	109,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	281,7	110,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	421,1	125,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	142,0	103,0
ijara xizmatlari	287,9	118,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	394,6	105,8
shaxsiy xizmatlar	387,9	109,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	144,0	106,0
boshqa xizmatlar	407,9	143,1

Eng yuqori o‘shish sur‘atlari boshqa xizmatlarida 143,1 %, ta‘lim sohasidagi xizmatlar 125,9 % moliyaviy xizmatlarda 124,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 123,5 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 103,0 %, Yashash va ovqatlanish xizmatlari 104,9 % hamda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar 105,8 % da kuzatildi.


Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 32,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 21,4 %, avtotransport xizmatlari 20,6 %, moliyaviy xizmatlar 17,3 % egallaydi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 3 674,7 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 675,2 mlrd. so‘mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste‘mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.


2022- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 85,8 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,4 % ga

yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,8 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2022- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 555,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o'sishi 109,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 95,9 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 94,1 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 5,9 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1981,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 124,2 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (89,5 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 421,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 125,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 335,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.


**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	11 466,9	114,0
Qarshi sh.	2959,3	118,7
Shahrisabz sh.	510,1	114,5
G'uzor	507,7	117,2
Dehqonobod	343,6	107,3
Qamashi	731,1	110,8
Qarshi	869,4	107,0
Koson	779,6	118,8
Kitob	782,3	109,8
Mirishkor	532,5	110,3
Muborak	739,7	120,9
Nishon	470,3	109,2
Kasbi	481,4	112,5
Ko'kdala	138,1	110,9
Chiroqchi	358,9	113,1
Shahrisabz	655,0	113,1
Yakkabog'	608,0	111,2

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (2 959,3 mlrd. so'm), Qarshi tumani (869,4 mlrd so'm), Kitob (782,3 mlrd. so'm), Koson (779,6 mlrd. so'm) va Muborak (739,7 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ko'kdala (138,1 mlrd. so'm), Dehqonobod (343,6 mlrd. so'm), Chiroqchi (358,9 mlrd. so'm) va Nishon (470,3 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori o'sish sur'atlari Muborak – 120,9 %, Koson– 118,8 %, Qarshi shahar – 118,7 % va Shahirsabz 114,5 % kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (25,8 %), Qarshi tumani (7,6 %), Kitob (6,8 %) va Koson (6,8 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala (1,2 %), Dehqonobod (3,0 %) va Chiroqchi (3,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan hajm 567,9 ming so'mga oshib, 3338,4 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 10356,5 ming so'mdan, Ko'kdala tumanida 772,5 ming so'mgacha oralig'ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi tumanida (186,4 %), Muborak tumanida (118,5 %) va Qarshi shahrida (116,4 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qarshi (104,3 %), Dehqonobod (105,0 %), Nishon (106,8 %) va Kitob (107,8 %) tumanlarida qayd etildi.